



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MONTESSORI METODINI BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISHNING ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Montessori metodining bolalarning o'qish va fiologik-psixologik jihatdan rivojlanishiga qay darajada samarali ta'sir ko'rsatishi turli xalqaro tajribalar, olimlarning ilmiy tadqiqot izlanishlari doirasida ko'rib chiqiladi. Montessori metodining samarali texnika va metodlari o'rganilib, O'zbekiston ta'lim tizimi bilan taqqoslanadi. Ikki tizimning integratsiyasi orqali o'qitishni istiqbolli yangi bosqichga olib chiqiladi. Ushbu yo'ldagi muammolar ko'rib chiqilib, unga mos yechimlar yoritiladi.

Kalit so'zlar:

Montessori metodi, mustaqil faoliyat, kuzatuv, konstruktivizm, moslangan muhit, sensor materiallar, idrok, diqqat, tafakkur, faol tajriba.

Аннотация.

В данной статье рассматривается степень эффективности метода Монтеessori в развитии навыков чтения, а также физиологического и психологического развития детей на основе международного опыта и научных исследований ученых. Анализируются эффективные техники и методы подхода Монтеessori и проводится их сравнение с системой образования Узбекистана. Интеграция двух систем позволяет вывести процесс обучения на новый перспективный уровень. Также рассматриваются существующие проблемы и предлагаются соответствующие пути их решения.

Ключевые слова:

метод Монтеessori, самостоятельная деятельность, наблюдение, конструктивизм, подготовленная среда, сенсорные материалы, восприятие, внимание, мышление, активный опыт.

Abstract.

This article examines the extent to which the Montessori method effectively influences children's reading skills as well as their physiological and psychological development, based on various international experiences and scientific research conducted by scholars. The effective techniques and methods of the Montessori approach are analyzed and compared with the education system of Uzbekistan. Through the integration of the two systems, teaching is brought to a new and promising level. The challenges in this process are also considered, and appropriate solutions are proposed.

Keywords:

Montessori method, independent activity, observation, constructivism, prepared environment, sensory materials, perception, attention, thinking, active experience.

Montessori metodi raqobatga asoslanmagan, har bir bolaning o'z o'rganish tempiga mos tushadigan hamda bolalarni o'zligini saqlagan holda ijtimoiy jamiyatning bir bo'lagi bo'lishga undaydigam ta'lim modelidir. Montessori yondashuvining bosh g'oyasi – bolaning tabiiy qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur'atiga mos sharoit yaratib, uni mustaqil, erkin va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishdir. Montessori maktablarini bitirgan bolalarning barchasi ham ulkan yutuqlarga erisha olmasligi mumkin lekin ular o'z hayotidan mamnun holda yashaydilar, o'zi sevgan kasb bilan shug'ullanadilar deb aytga Maria Montessori. Maria o'zining "Education and peace" [1] kitobida bola – insoniyat kelajagi ekanligini, agar biz bolaga erkin rivojlanish imkonini bersak, u jamiyatni o'zgartirishga qodir bo'lishini aytib o'tgan. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" [2] (ZPD) haqidagi nazariyasi Montessori metodining amaliy jihatlarida o'z ifodasini topadi. Montessori muhitida bola mustaqil faoliyat yuritadi, biroq kattalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri emas, bilvosita yo'naltiriladi. Bu jarayon 'yo'naltirilgan erkinlik' prinsipi orqali amalga oshadi — ya'ni bola erkin tanlov asosida harakat qiladi, ammo o'qituvchi uning rivojlanish darajasiga mos sharoitni yaratadi. Shunday qilib,

Montessori metodi Vygotskiyning ijtimoiy-interaktiv rivojlanish g'oyasiga hamohangdir. Montessori metodining pedagogik asoslari, shuningdek, Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim falsafasi bilan hamohangdir. Dewey [3] ta'limni jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etgan va o'quvchini faol tajriba ishtirokchisiga aylantirishni maqsad qilgan. Montessori metodida ham o'qitish emas, balki "rivojlanish uchun yordam berish" tamoyili ustuvor sanaladi. Shuning uchun Montessori sinfida har bir faoliyat o'quvchi tomonidan mustaqil bajariladi va o'qituvchi kuzatuvchi rolini bajaradi.

Montessori o'quv materiallari bolaning idrokini, diqqatini, tafakkurini va tahlil qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu orqali o'quvchi o'z bilish jarayonining faol subyekti sifatida shakllanadi. O'zbekistonlik bir qator tadqiqotchilar (jumladan, Safarova, Zunnunov va boshqaalar) Montessori texnologiyasining boshlang'ich ta'limdagi ahamiyatini Amaliy tajriba sifatida o'rganishga e'tibor qaratganlar, biroq ularning ishlari ko'proq metodik tavsiyalar darajasida bo'lib, kompleks emperik tadqiqot shaklida to'liq yoritilmagan. Montessori metodining nazariy-pedagogik asoslari konstruktivizm, faoliyat nazariyasi, metakognitiv yondashuv va ijtimoiy-interaktiv rivojlanish konsepsiyalariga tayanadi. U bola shaxsini markazga qo'ygan, o'zini anglash, mustaqil harakat qilish va o'z tajribasini tahlil qilish imkonini beruvchi universal pedagogik tizimdir

Montessori metodida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir an'anaviy ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. An'anaviy yondashuvda o'qituvchi bilim manbai va nazorat subyekti sifatida qat'iy markazda bo'lsa, Montessori tizimida u "yo'l boshchi", "kuzatuvchi" va "rivojlanish uchun sharoit yaratuvchi" rolini bajaradi [4]. Montessori ta'lim falsafasining markazida bolaning tabiiy faoliyati, mustaqilligi va ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash g'oyasi yotadi.

O'qituvchi roli: yo'naltiruvchi va kuzatuvchi. Montessori tizimida o'qituvchi bolaning faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri boshqarmaydi, balki uning individual rivojlanish yo'lini kuzatadi. U shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini tashkil etadi va har bir bolaning ehtiyojiga mos materiallarni tanlaydi [5]. Montessori bu rolni "direktrissa" deb atagan, bu esa "yo'naltiruvchi" degan ma'noni anglatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi — bolaning mustaqil harakatini qo'llab-quvvatlash, lekin unga aralashmaslikdir. Montessori muhitida o'qituvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bolaning individual rivojlanish bosqichini aniqlash va kuzatish;
- muhitni rivojlanish ehtiyojlariga mos tayyorlash;
- har bir faoliyatni qanday bajarishni namoyish etish, lekin majburlamaslik;
- bolaning mustaqilligini hurmat qilish va unga tanlov imkonini berish

Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" [6] nazariyasi Montessori tizimining psixologik asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi bola uchun murakkab, ammo uning imkoniyatlari doirasidagi vazifalarni tanlaydi. Shu tarzda bola yordam orqali yangi bilimni o'zlashtiradi, lekin keyingi bosqichda uni mustaqil amalga oshira oladi.

O'quvchi roli: faol subyekt sifatida. Montessori tizimida o'quvchi bilim jarayonining markazida turadi. U passiv tinglovchi emas, balki faol tadqiqotchi, kashf etuvchi, kuzatuvchi va yaratuvchidir. Dewey [7] ta'kidlaganidek, haqiqiy ta'lim o'quvchining tajribasiga tayanadi. Montessori tizimi aynan shu printsipni amalga oshiradi: bola o'zi tanlagan faoliyat orqali tajriba orttiradi, xatolardan o'rganadi va o'z bilimini mustahkamlaydi. O'quvchi harakat, sezgi va tahlil orqali bilim oladi. Masalan, "sensor materiallar" orqali u atrofdagi olamni idrok etadi, "matematika materiallari" orqali esa miqdor, tartib, nisbat tushunchalarini amalda o'rganadi.

[8]. Bu jarayon konstruktivistik o'rganish nazariyasiga mos bo'lib, Piaget (1952) tomonidan ishlab chiqilgan "aktiv bilish" [9] konsepsiyasini amalda qo'llaydi.

O'zaro ta'sir modeli. Montessori metodida o'qituvchi-o'quvchi o'zaro ta'siri quyidagi pedagogik modelga asoslanadi:

1. Kuzatuv – aniqlash – yo'naltirish. O'qituvchi avvalo bolani kuzatadi, uning rivojlanish ehtiyojini aniqlaydi, keyin esa muhitni moslashtiradi.

2. Namoyish – mustaqil faoliyat – tahlil. O'qituvchi faoliyatni ko'rsatadi, bola esa uni mustaqil takrorlaydi. Keyin o'qituvchi bola faoliyatini tahlil qilib, individual yondashuvni davom ettiradi.

3. Ichki motivatsiya – tashqi qo'llab-quvvatlash. Montessori tizimida baho va jazodan foydalanilmaydi; o'quvchini ichki motivatsiya boshqaradi, o'qituvchi esa tashqi sharoit yaratadi.

Bu modelda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikning yangi turi yuzaga keladi: pedagogik jarayon "yo'naltirilgan erkinlik" tamoyiliga tayanadi. Bola erkin, lekin tartibli muhitda faoliyat yuritadi; o'qituvchi esa bu tartibni boshqaruvchi emas, balki "rivojlanish muhiti muvofiqlashtiruvchisi" sifatida qatnashadi.

Montessori tizimining amaliy samarasini ilmiy tadqiqotlar asoslab bergan Tomasello [10] o'z tadqiqotlarida shaxslararo hamkorlik va ijtimoiy bilish qobiliyatlarining erta yoshdan rivojlanishini Montessori tizimi bilan bog'lagan. Shuningdek, Meltzoff [11] o'zining kognitiv ko'nikmalar shakllanishi haqidagi ishlarida taqlid va ijtimoiy o'rganishning ahamiyatini ta'kidlagan — bu Montessori sinfidagi kuzatish va amaliy faoliyat jarayonlariga bevosita mos keladi.

Demak, Montessori metodining boshlang'ich ta'lim kontekstida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir modeli insonparvar, faol va o'zini boshqaruvchi ta'lim tizimini shakllantiradi. O'qituvchi o'quv jarayonining markazida emas, balki uning atrofida, bola esa o'z rivojlanishining faol subyekti sifatida markazda joylashadi. Bu yondashuv kognitiv rivojlanish, ijodkorlik va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maria Montessori. "Education and Peace" Montessori Pierson publishing company, volume 17 p-43
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Montessori, M. (1912). The Montessori Method. New York: Frederick A. Stokes Company
4. Montessori, M. (1912). The Montessori Method. New York: Frederick A. Stokes Company.
5. Lillard, A. S. (2011). Montessori: The Science Behind the Genius. Oxford University Press.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
7. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
8. Lillard, A. S. (2011). Montessori: The Science Behind the Genius. Oxford University Press.
9. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
10. Tomasello, M. (2020). Becoming Human: A Theory of Ontogeny. Harvard University Press.
11. Meltzoff, A. N. (2020). Foundations for a New Science of Learning. Oxford University Press.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNINI VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	4
<i>Azizova Dilbarxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNINI	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ	28
<i>Qodirbekova Zebaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOSSITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэвна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ	43
<i>Olimova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH	66
<i>Raxmanov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI	70
<i>Bazarboyeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSION YONDASHUVLAR DRODALI TARBIIYACHILARNING KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOJIR	81

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскароев Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJIY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH	104
<i>Maksumova F.K</i> MADOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI	110
<i>Alisherova Zulfiya Talibdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI	114

ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasoy Murodjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unboyeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrokhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN R^n	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Unaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	188